

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA
TARBIYALANUVCHILARNI MILLIY RUHDA TARBIYALASH
METODIKASINI RIVOJLANTIRISH**

Qosimova Aziza Umarali qizi

E-mail: qosimovaaziza1995@gmail.com

Tel: +998 94 3043095

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni milliy ruhda tarbiyalashning asosiy yo'nalishlari va nazariy ma'lumotlar haqida yoritilgan. Maqolada tarbiyachi pedagog tarbiya bilan birgalikda milliylikka ham e'tibor qaratadi. Taklif etilgan metodik yondashuvlar ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda yosh avlodni milliy ruhni saqlagan holda tarbiyalash keng yoritilgan

Kalit so'zlar: Tarbiya, milliy tarbiya, urf-odat, ajdodlar, pedagogic mahorat, davlat o'quv dasturi, ij, pedagog, tarbiyachi, maktabgacha ta'lim, tarbiyalanuvchi, ma'naviyat, ertaklar, topishmoqlar, maqollar, tez aytishlar, qo'shiqlar.

Barchamizga ma'lumki bugungi kunda ham mamlakatda olib borilayotgan ijtimoiy siyosat, xususan, ta'limdagi ilmiy-amaliy izlanishlar kelajagimiz ertasi bo'lmish yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash, barkamol insonni voyaga yetkazish, ularning qalbida Vatanga, xalqiga sadoqat ruhini shakllantirishga etibor qaratilgan. Pedagogika va metodika ilmlarida milliy-ma'naviy, umuminsoniy qadriyatlarining o'rnini va ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilib, yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashning o'quv-uslubiy tizimini takomillashtirish ko'zda tutilgan. Yurtboshimiz urg'u berib ta'kidlaganidek: "Hammangiz yaxshi tushunasiz, agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya'ni bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyatga tayanamiz" [7, 7-b.].

Ma'lumki, bashariyat tarixida turfa shakldagi, mazmun-mohiyati o'zgacha fikrlar, g'oyalar yuzaga kelgan, ko'plab ijtimoiy-siyosiy kuchlar o'z maqsad, manfaatlarini ifoda etuvchi ta'limotlari bilan jamiyatga, insoniyatga xitob qilganlar. Ular ichida milliy negizga asoslanib, o'zgalar manfaati, qadriyatlarini ham hurmat qilishga da'vat etgan, ma'naviy tozarish, ma'rifiy yuksalishni o'z g'oyalari, mafkuralari markaziga qo'ygan ta'limotlarga asrlar osha nafaqat shu millatning, balki insoniyatning davrlar o'tsa ham kundalik hayotda amal qiladigan etalonga aylanadi. Bu borada o'zbek zaminida asrlar osha shakllanib, taraqqiy etgan, millatimizning tom ma'nodagi mafkurasiga aylangan, iste'foda etish orqali boshqa

xalqlarning ham yuksalishiga omil bo'ladigan ta'limotlar borki, ular ta'lim-tarbiyada to'g'ri yo'nalish olish uchun mayoq vazifasini o'taydi.

Biz mazkur mafkurani yosh avlod ongiga singdirish orqali ularni barkamol etib tarbiyalash maqsadini ko'zlar ekanmiz, shuni yodda tutishimiz lozimki, qaysidir bir mafkura mazmunini to'la idrok etish uchun uning tarkibidagi g'oyalarnigina tahlil qilish kifoya qilmaydi. Buning uchun mafkura mohiyatini chuqur o'rganish lozim bo'ladi. Asrlar davomida umume'tirof etgan qonunning hammadan ustuvorligi, siyosiy plyuralizm, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik kabi tamoyillar dunyoviy jamiyatning asosini tashkil qiladi. Bu kabi tamoyillar yetakchi bo'lgan jamiyatda har bir inson huquqlari, erkinliklari oliy qadriyat sifatida tan olinadi va bunga rioya qilinadi. Ba'zi mamlakatlarda jamiyatda hech qanday mafkura, yetakchi g'oya bo'lmasligi kerak degan aqidani ilgari surishadi. Holbuki, ular xohlaydimi yoki yo'q, ajdodlaridan o'tib kelgan an'ana, qadriyat, milliy urf-odat, o'zaro munosabat shakllariga rioya qiladilar va ularni keyingi avlod tomonidan o'zlashtirilishiga e'tibor qiladilar. Ajdodlardan o'tib kelayotgan fikrlar, g'oyalar ta'sirida yashaydilar, avlodlarini tarbiyalaydilar. Aslida aynan shularining yig'indisi mafkura bo'lib, dunyodagi biror bir xalq mafkurasiz yashay olmasligini ko'rsatadi. Odamlarning bir jamiyat bo'lib shakllanishi, davlatning, xalqning to'laqonli taraqqiy qilishi uchun ham milliy g'oya, ma'naviyatga yo'g'rilgan mafkuraga ehtiyoj tug'iladi. Bu borada millat ma'naviyati, yurt ravnaqiga o'zini mas'ul bilgan hamyurtlarimiz uchun, shuningdek, ijtimoiy fanlar, xususan, pedagogikadan ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilarga davlatimiz rahbarining quyidagi fikrlari dasturulamal bo'lib xizmat qiladi: "Afsuski, hali oramizda milliy g'oya va ma'naviyatning mohiyatini to'liq anglab yetmagan, "ma'naviyat o'zi kerakmi - yo'qmi?", deb yurganlar ham bor. Milliy g'oya deganda, eski sovet mafkurasini xayoliga keltirib, "labiga uchuq toshadiganlar" ham yo'q emas. Agar mafkura ezgulik va insonparvarlik g'oyalariga, shaxsning huquq va erkinliklari, tinch va osoyishta hayotini ta'minlashga, odamning qadr-qimmatini ulug'lashga xizmat qilsa, nima uchun undan qo'rqishimiz kerak?

Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Shu munosabat bilan ta'kidlab aytmoqchiman: biz barpo etayotgan yangi O'zbekistonning milliy g'oyasi insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik g'oyasi bo'ladi" [7,7-b.]. Ayniqsa, hozirgi globallashuv sharoitida xalqlar o'zligini, milliy mentalitetini saqlab qolishlari uchun ham g'oya va mafkuraga muhtojliklari sezilmoqda. "Bu jarayonda ma'naviy o'zlikni anglash, lozim topilsa, himoya qilish talab etiladi. Aslida milliy g'oyaning bilish, tarbiyaviy, regulativ, kommunikativ, normativ, qadriyatli, safarbar etish, yo'naltirish, himoya, g'oyaviy bandlik kabi funksiyalarini bajarish uchun yoshlar va aholi ongida faqat bilim va tasavvur sifatida emas, ishonch va e'tiqod sifatida shakllanishi lozim" [49].

Yosh avlodni ma'naviy tarbiyalashda milliy o'zlikni shakllantirish g'oyat muhim ahamiyatga ega. Milliy o'zlikni bilishni targ'ib qilishda, ma'naviy tarbiyani yo'lga qo'yishda ma'rifiy yondashuv yetakchilik qilsa, bu jarayonlar kutilgan samarani beradi. Milliylikka intilish g'oyasi faqat so'zda, odamlar xotirasidagina qolmay, kundalik hayot tarziga aylangan taqdirda uni targ'ib qilishga ham zarurat qolmaydigan darajada ijtimoiy voqelikka aylanadi. Hozirgi inson ongi va qalbi uchun kurash keskin tus olayotgan bir davrda mafkura maydonida xilma-xil qarashlarning yetakchilik qilishga intilishi tabiiy hol. Milliy mahdudlik bor joyda ular o'zlariga faoliyat uchun oson yo'l topadilar, xalqni, eng avvalo, yoshlarni dini, tilidan begonalashtirib, manqurtlik qiyofasiga soladilar va so'ng xohlagan yo'llarga boshlay oladilar. Yurtboshimiz bu boradagi oqsashlarga ham e'tibor qaratib, tegishli ko'rsatmalar bergan edi: "...aytish lozimki, biz ulug' bobolarimizning munosib davomchilari bo'ladigan yetuk insonlarni tarbiyalash masalalariga, afsuski, yetarlicha ahamiyat bermadik. Holbuki, intellektual va madaniy salohiyatning qanday noyob boylik ekani, nodir talant egalarini tarbiyalab kamolga yetkazish hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini unutishga haqqimiz yo'q. Rivojlangan mamlakatlar bugungi yuksak taraqqiyot darajasiga aynan shuning hisobidan yetgani – bu ham haqiqat" [8, 140-b.]. Shu bois milliy-ma'naviy tarbiyani kuchaytirish zarurati har doim dolzarb bo'lib kelgan va bo'lib qoladi ham. O'tgan asrda ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir", – deya bong urishi bejiz emas edi [41, 165-b.]. Milliy **ruhda tarbiyalashni** esa bola tug'ilganidan oilada, ta'lim muassasalarida uzluksiz olib borish lozim. Prezidentimizning quyidagi fikrlari maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlari zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklaydi: "Ayni paytda farzandlarimiz tarbiyasi hal qiluvchi bo'g'in hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimining zamon talablariga mos kelmasligi ham sir emas... Bog'cha tarbiyasini ko'rgan bolaning ongi, dunyoqarashi qanday yuqori bo'lishini bugungi kunda kimgadir isbotlab o'tirishning, o'ylaymanki, hech qanday hojati yo'q.... ta'lim sohasida ana shunday islohotlarni joriy etish biz uchun ham qarz, ham farzdir" [8, 25-26-b.].

Millatimiz ertasi bo'lgan farzandlarimizni jismonan baquvvat, ma'naviyati yuksak, aqli barkamol, ruhi uyg'oq, o'zligini tanigan avlod qilib tarbiyalash bugungi kunda millat g'oyasi o'laroq qabul qilindi. Bu borada ajdodlarimiz asrlar mobaynida tayanib kelgan diniy-ilohiy manbalar, buyuk mutafakkir bobolarimizning o'lmas asarlari tayanch asos vazifasini o'taydi.

Alisher Navoiy o'zlikni bilish vositasi deb keng ma'nodagi ishqni biladi. Ulug' adibga ko'ra ishqning mohiyati "Mahbub ul-qulub"da shunday ta'riflanadi va u nafaqat shoir ijodi uchun, balki butun Sharq, jumladan, o'zbek mumtoz adabiyotida o'zlikni anglash vositasi bo'lmish ishqning qanday tushunish lozimligini uqtiradi: "Ul pok ko'zni pok nazar bila pok yuzga solmoq va pok ko'ngul ul pok yuz oshubidin

qo‘zg‘almoq va bu pok mazhar vositasi bila oshiqi pokboz mahbubi haqiqiy jamolidin bahra olmoq” [59, 67-b.].

Dunyodagi oltinchi romanchilik maktabi asoschisi Abdulla Qodiriy ham yozgan asarlari, ham publisistik chiqishlari orqali milliy til himoyachisi, targ‘ibotchisi sifatida maydonga chiqqan edi. U maqolalarining birida “O‘zbek tili kambag‘al emas, balki o‘zbek tilini kambag‘al deguvchilarning o‘zi kambag‘al. Ular o‘z nodonliklarini o‘zbek tiliga to‘nkamasinlar” deb yozgan edi [116]. Shu o‘rinda XX asr o‘zbek she‘riyatining ustunlari Mirtemirning “Ona tilim” she‘rida “Go‘ro‘g‘lining alp siymosi, Alpomishning da‘vosidan – Tug‘ilgan til – Ona tilim” deb yozar ekan, bu milliy qadriyatning iftixorimiz asosi bo‘lishi bilan birga yosh avlodni mililiy ruhda tarbiyalashdagi imkoniyatiga ham ishora qiladi. Abdulla Oripov shu nomdagi yana bir she‘rida tilimizga murojaat qilib “Sen yo‘qolgan kuning, shubhasiz, Men ham *to‘ti bo‘lib qolaman!*” deb yozadiki, u o‘zligimiz asosi ekanini har bir millatdoshimizga, xususan, yosh avlodga uqtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.12.2019 sanadagi “Uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/4676839>
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda qabul qilingan “Maktabgacha ta‘lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/5179335>.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2016-yil 29- dekabrda “2017-2021 yillarda maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2707-son qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrda qabul qilingan “Ta‘lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-sonli qarori. <https://nrm.uz/contentf?doc=640117>
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son qarori. <https://lex.uz/docs/4320700>
6. “Ilk qadam” maktabgacha ta‘lim muassasasining davlat o‘quv dasturi. T.: 2018.
7. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g‘oyamiz poydevoridir. T.: Tasvir, 2021. 7-b. (36)
8. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. T.: O‘zbekiston, 2018. 25-26-140-b. (508)
9. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. T.: Tasvir, 2020. 12-b. (72)
10. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun munosabati bilan O‘zbekiston xalqiga tabrik.

11. Abdullayeva M.A., Abdullayeva M.S. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tasviriyl faoliyatlarida maktabga tayyorlash. Aoriental Art and Culture Scientific Methodical Journal. II/2020. 212-b.
12. Abdurahimova D.A. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni axloqiy ruhda tarbiyalashda xalq ertaklaridan foydalanish: 13.00.01.Ped. fan. nom. disser.-T.: TDPU,1998.-239 b.
13. Akromova F., Bilolova Z. O'zbek oilalarida ma'naviy-axloqiy muhitni shakllantirishda keksalarning ta'siri. "Zamonaviy ta'lim" jurnali, 2016, 6-son, 6-bet.
14. Axunov U. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan teatrlashtirilgan o'yinlarni tashkil etish va o'tkazishning pedagogik shart-sharoitlari. "Uzluksiz ta'lim" jurani, 2021, maxsus son. 30-b.
15. Azimova Z. "Tarbiyaviy ishlar tizimini integral diagnostik asosda takomillashtirish" mavzusidagi ped-ga fanl. dokt. diss-yasi. Nukus, 2018. 25-26-34-35-betlar. (208)
16. Azimova Z. Montessori tamoyillariga amaliy tavsiyalar. Xalq ta'limi, 2021, 4-maxsus son. 119-b.
17. Azizova Z. F. Qo'g'irchoq teatri vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish. ped. fan. fal. dok. ... avtoref. – Toshkent, 2019. – 26 b.
18. Azizova Z., Qodirov V. Qo'g'irchoq teatri vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish. Andijon: "Andijon nashriyot-matbaa", 2020. 27-b.